

2025 й. «26» 02 даги Зафарқўрағон ш. Кошонида
и Исоққул манаби ДУК ўртасида
55994400 сўм умумий суммага тузилган 33 - сонли шартномага

ТЎЛОВЛАР ЖАДВАЛИ*

Боб 018
Шахсий газна ҳисобварақ 100022860174087011204018001

(сўмда)

2025 й. ойлар номи	Харажатлар тури** (бюджет таснифинингтегишли коди)			Жами
	42-23-000			
Январь				
Февраль	33818400			33818400
Март	22176000			22176000
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август				
Сентябрь				
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь				
Жами йил бўйича	55994400			55994400

Жами: 55994400 сўм (71 млн 994 400 сўм) 71 млн 994 400 сўм
сумма сўз билан сенинг Тўлов сўми

Юқоридаги кўрсатилган суммадан сўм ёки шартноманинг умумий суммасидан
% *** 2025 йил ойида тўланиши лозим.

(*) – бюджет ташкилоти, бюджет маблағ олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан фазначилик бўлинимасига икки нусхада тақдим этилади;

(**) – бўлим, кичик бўлим ва харажат моддаси кўрсатилади;

(***) - Юқоридаги кўрсатилган суммадан ойига 100 % жорий ойнинг 30 санасигача ҳар ойда олдиндан тўланиши лозим (ушбу сатр бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан коммунал хизматлар кўрсатиш, алоқа хизматлари ва қонун ҳужжатларида назарда тутилган ҳар ой доимий равишда товарла (иш, хизматлар) етказиб бериш шартномалари бўйича олдиндан тўловни амалга ошириш ҳолларида тўлдирилади).

Буюртмачи раҳбари
(имзо) Ф.И.О.

М.Ў.
Буюртмачи
бош бухгалтер
(имзо) Ф.И.О.

Фазначилик бўлинимасининг
ходими қабул қилди
(имзо)

2024й. « »

Буюртмачи ходими
қабул қилди
(имзо)

2024й. « »

ISSIQ SUV KO'RINISHIDAGI ISSIQLIK ENERGIYASIDAN FOYDALANISH TO'G'RIDA

23 -sonli SHARTNOMA

Zarafshon shahri

"86" 02 2025 yil.

Ushbu shartnomani "ISSIQLIK MANBAI" Davlat unitar korxonasi Zarafshon filiali (keyingi o'rinlarda "Issiqlik ta'minoti korxonasi" deb ataladi) nomidan, **06.01.2025-yildagi 02-22/01-15-sonli ishonchnoma** asosida faoliyat ko'rsatuvchi rahbari **Elmatov Odiljon Nematovich** bir tomonidan, bundan buyon matnda "Yetkazib beruvchi" deb yuritiladi, hamda keyingi o'rinlarda "Iste'molchi" deb yuritiluvchi **Navoiy viloyati Zarafshon shahar hokimligi (Hokimyat binosi uchun) Nizom** asosida ish olib boruvchi hokim o'rinbosari **Shoxmirzayev Anvar Shoxmirzayevich** ikkinchi tomondan, quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar.

I. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. Ushbu shartnomaga asosan Issiqlik ta'minoti korxonasi issiq suv ko'rinishidagi issiqlik energiyasini yetkazib berishni, Iste'molchi esa issiqlik energiyasidan foydalanish va foydalangan issiqlik energiyasi uchun o'z vaqtida haq to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.2. Tomonlar ushbu shartnomani bajarishdagi faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 22-avgustdagi 245-sonli qarori bilan tasdiqlangan Issiqlik energiyasidan foydalanish qoidalariga (keyingi o'rinlarda "Qoidalar" deb ataladi) va amaldagi qonunchilik hujjatlariga asosan yuritadilar.

1.3. Shartnomaning umumiy qiymati **55 994 400,00 so'm** (ellik besh million to'qqiz yuz to'qson to'rt ming to'rt yuz so'm 00 tiyin)

Shu jumladan **55 994 400,00 so'm** (ellik besh million to'qqiz yuz to'qson to'rt ming to'rt yuz so'm 00 tiyin) byudjet mablag'idan.

II. UZATILADIGA ISSIQLIK ENERGIYASI MIQDORI

2.1. Issiqlik ta'minoti korxonasi Iste'molchiga **2025-yil "01" fevral** kunidan **2025-yil "31" dekabr** kunigacha bo'lgan davrda **0,0635** Gkal/soat miqdorida eng katta issiqlik yuklamasi bilan issiq suv ko'rinishidagi issiqlikni energiyasini yetkazib berishga majbur, bunda:

- a) texnologik ehtiyojlar uchun _____ Gkal/soat;
- b) issiq suv ta'minoti uchun 0,390 Gkal/soat;
- v) xonalarni isitish uchun 0,3647 Gkal/soat, tashqi atrof muhit havo harorati (-14°C) bo'lganda;
- g) xonalarni shamollatish uchun _____ Gkal/soat, tashqi atrof muhit havo harorati _____ °C bo'lganda;

2.2. Issiqlik ta'minoti korxonasi tomonidan Iste'molchiga xonalarni isitish va shamollatish uchun yetkazib beriladigan issiqlik energiyasi miqdori tashqi atrof muhit havo haroratiga bog'liq holda belgilanadi, issiq suv ta'minoti va texnologik ehtiyojlar uchun esa sutkalik iste'mol grafigi asosida belgilanib, u Iste'molchi tomonidan limitlangan holda choraklar va oylar kesimida taqdim etiladi, Issiqlik ta'minoti korxonasi bilan kelishiladi va choraklar bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

Davr	Issiqlik energiyasi miqdori			Yetkazib beriladigan issiqlik energiyasi so'mmasi Issiqlik tizimi Gkal
	Issiqlik tizimi Gkal	Issiq suv Gkal	Issiq suv ta'minoti	
I chorak	55,000	20,750	739 200,00	55 994 400,00
Yanvar	0,000	0,000	739 200,00	0,00
Fevral	35,000	10,750	739 200,00	33 818 400,00
Mart	20,000	10,000	739 200,00	22 176 000,00
II chorak	0,000	0,000	739 200,00	0,00
April	0,000	0,000	739 200,00	0,00
May	0,000	0,000	739 200,00	0,00
Iyun	0,000	0,000	739 200,00	0,00
III chorak	0,000	0,000	739 200,00	0,00
Iyul	0,000	0,000	739 200,00	0,00
Avgust	0,000	0,000	739 200,00	0,00

Sentabr	0,000	0,000	739 200,00	0,00
IV chorak	0,000	0,000	739 200,00	0,00
Oktabr	0,000	0,000	739 200,00	0,00
Noyabr	0,000	0,000	739 200,00	0,00
Dekabr	0,000	0,000	739 200,00	0,00
Jami:	55,000	20,750	739 200,00	55 994 400,00

Issiqlik ta'minoti korxonasi isitish mavsumida uzatiladigan tarmoq suvining sutkalik o'rtacha haroratini harorat grafigiga asosan 75°C haroratda (*harorat grafigi ko'rsatilsin*) ushlab turishni ta'minlaydi, issiqlik beruvchi quvurda suv harorati bo'yicha chetga chiqish ($\pm$) 3% dan ortiq, issiqlik uzatuvchi quvurda suvning bosimi bo'yicha 20 kPa ($\pm$) 5% dan ortiq pasayib ketishga yo'l qo'ymaslik kerak.

Yoz davrida esa uzatiladigan tarmoq suvning sutkalik o'rtacha haroratini 60°C, haroratda, suv harorati bo'yicha chetga chiqish ($\pm$) 3% dan ortiq, (*harorat ko'rsatilsin*) suvning bosimi bo'yicha _____ ($\pm$) 5% dan ortiq bo'lmasligi kerak. (*bosimi ko'rsatilsin*)

2.3. Iste'molchi quyidagilarga rioya qilishi kerak:

a) issiqlik tarmog'i suvining sarfi hisoblangan miqdori 0,2518 m³/soatdan;

b) issiqlik tarmog'idan kelayotgan suvning maksimal miqdori 0,2518 m³/soatdan;

v) issiqlik tarmog'i suvining yo'qotilish miqdori _____ m³/soatdan;

g) qaytarilayotgan tarmoq suvining o'rtacha harorati harorat grafigidagi miqdorga nisbatan 3°C dan oshmasligi kerak.

Tarmoq suvining maksimal miqdori Issiqlik ta'minoti korxonasi tomonidan rostlagich yoki suriluvchi klapan yordamida o'rnatiladi. Elevatordagi siquvchi qurilmani almashtirish Issiqlik ta'minoti korxonasi bilan kelishilgan holda bajariladi.

III. HISOB-KITOB TARTIBI VA ISSIQLIK ENERGIYASI NARXI

3.1. Issiqlik energiyasi uchun hisob-kitob davri 1 oy qilib belgilanadi.

3.2. Iste'molchi issiqlik ta'minoti korxonasiga keyingi oy uchun zaruriy issiqlik energiyasi uchun 70 foiz oldindan to'lovni amalga oshiradi, qolgan 30 foiz to'lovni keyingi oyning 15 sanasiga qadar amalga oshiradi, belgilangan muddatda to'lov qilinmasa Iste'molchi isitish tizimidan o'chiriladi.

3.3. Iste'molchiga yetkazib beriladigan issiqlik miqdori hisobga olish priborlari ko'rsatkichi bo'yicha aniqlanadi _____,

(*tipi, nomi, hisobga olish nomer*)

(*o'rnatilgan joyi*)

3.4. Issiqlik ta'minoti korxonasi obyektlarida o'rnatiladigan issiqlik enegiyasini hisobga olish priborlari Iste'molchi mablag'i hisobidan olinadi, o'rnatiladi va davlat qiyoslashidan o'tkaziladi, keyinchalik Iste'molchi iste'mol qilingan issiqlik energiyasini hisobga olish priborlarida qayd etilgan ko'rsatkichlarni har oyda Issiqlik ta'minoti korxonasiga hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun taqdim etadi.

Iste'molchida o'rnatilgan priborlar iste'molching o'zi tomonidan ekspluatatsiya qilinadi va ta'mirlanadi.

Issiqlik ta'minoti korxonasi shartnomaga binoan istalgan vaqtda mazkur hisobga olish priborlarini ko'zdan kechirishi, tekshirish va hisobga olish priborlaridagi ko'rsatkichlarni olish huquqiga ega.

3.5. Issiqlik ta'minoti korxonasi tomonidan xizmat ko'rsatiladigan hisobga olish priborlarini ta'mirlash davri mobaynida issiqlik energiyasi uchun hisob-kitoblar priborlar to'xtashidan oldingi oxirgi 15 sutka uchun o'rtacha sutkalik sarf bo'yicha amalga oshiriladi. Iste'molchining balansidagi issiqlikni hisobga olish priborlari ta'mirlash uchun

15 sutkagacha bo'lgan muddatga to'xtatilganda issiqlik energiyasi uchun hisob-kitoblar shartnomadagi bir soatlik yuklama va issiqlik energiyasini uzatish soatlari soni bo'yicha amalga oshiriladi.

Iste'molchi hisobga olish priborini ta'mirlashi tugaguncha issiqlik energiyasi olishni to'xtatishga haqli, bu holda Issiqlik ta'minoti korxonasi zadviykani plombalaydi va bu haqda Iste'molchi bilan birgalikda dalolatnoma tuziladi.

3.6. Hisobga olish priborlari bo'linish chegarasida o'rnatilmagan taqdirda issiqlik energiyasi uchun hisob-kitoblar bo'linishi chegarasidan hisobga olish priborlari o'rnatiladigan joygacha bo'lgan uchastkadagi issiqlik energiyasi yo'qotishlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. yo'qotishlarning hisob-kitobi yoki issiqlik energiyasi yo'qotishlarning sinovini issiqlik ta'minoti korxonasi Iste'molchi bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2007-yil 7-iyunda 1687-son bilan davlat ro'yxatiga olingan "Issiqlik energiyasini ishlab chiqarish va uzatish uchun issiqlik yuklamalarini, yoqilg'i, elektr energiyasi, issiqlik energiyasi va suv sarflari me'yorlarini hamda texnologik yo'qotishlar me'yorlarini aniqlash tartibi to'g'risida Nizom"ga muvofiq amalga oshiradi.

Issiqlik enegiyasi berilishini hisobga olish issiqlik ta'minoti korxonasi va Iste'molchining issiqlik tarmoqlarining bo'linish chegarasida amalga oshirilishi kerak. Issiqlik ta'minoti korxonasi aybi bilan paydo bo'lgan yo'qotishlar uchun Iste'molchi haq to'lamaydi.

3.7. Tarmoq suvidagi issiqlik energiyasi yo'qotilishi Iste'molchi tomonidan quyidagi hollarda shartnomaviy kelishilgan narxlarda to'lanadi:

Issiqlik tarmoqlarining gidravlik va haroratli sinovlari o'tkazilishi bilan bog'liq yo'qotishlar o'rni to'ldirish;

Iste'molchi tarmog'ini uning buyurtmanomasi bo'yicha to'ldirish, avariya vaziyatlar ham shu jumlag kiradi;

Iste'molchidan qaytariladigan past sifatli (tarkibida temir, mexanik qorishmalar va boshqalar mavjud bo'lgan) orqaga qaytadigan tarmoq suvini sizdirish;

Issiqlik ta'minoti korxonasining aybi bilan yuz bergan tarmoq suvidagi issiqlik energiyasi yo'qotishlari uchun iste'molchi tomonidan haq to'lanmaydi.

3.8. Issiqlik ta'minoti korxonasi va Iste'molchi issiqlik tarmoqlari balans mansubligi bo'linish chegarasigacha issiqlik energiyasi yetkazib berishdagi sarf va yo'qotishlar tariflarda hisobga olinadi va tarifdan ortiqcha to'lovga yo'l qo'yilmaydi.

3.9. Balans mansubligi bo'linish chegarasidan keyingi hamma sarf va yo'qotishlar Iste'molchiga taalluqlidir. Agar issiq suv Iste'molchi issiqlik tarmog'i orqali uzatilayotgan bo'lsa issiqlik energiyasi miqdor elektr stansiya kollektoridagi hisobga olish pribori ko'rsatishi bo'yicha aniqlanadi.

3.10. Iste'molchi har oyda hisobga olish pribori ko'rsatkichini oladi va har oyning 30 sanasigacha Issiqlik ta'minoti korxonasiga iste'mol qilingan energiyasi bo'yicha hisobot beradi.

Iste'mol qilingan issiqlik energiyasi haqidagi hisobot iste'molchi tomonidan taqdim etilmasa issiqlik ta'minoti korxonasi hisob-kitobni shartnomadagi issiqlik yuklamasi bo'yicha amalga oshiradi. Amalda iste'mol qilingan issiqlik energiyasi miqdorining qayta hisob-kitobi, soz holatdagi hisobga olish priborining ko'rsatkichlari birgalikda yozib olinib, tegishli dalolatnoma tuzilgandan keyin bajariladi. Mazkur qayta hisob-kitob keyingi hisobot davri uchun hisob-kitobda e'tiborga olinadi.

Iste'molchi tomonidan issiqlik energiyasi haqida hisobot taqdim qilingandan so'ng Issiqlik ta'minoti korxonasi tomonidan Iste'molchi bilan birga hisobga olish ko'rsatkichlari va amaldagi issiqlik enrgiyasi iste'moli bo'yicha hisobot rasmiylashtiriladi (4-Illova), u esa yetkazib beriladigan va iste'mol qilingan energiyani hisobga olishning birlamchi hujjati hisoblanadi. Hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlari taqdim qilinganda, hisobot u bo'yicha bir tomonlama tartibda tuziladi.

Issiqlik ta'minoti korxonasi iste'mol qilingan issiqlik energiyasini o'rnatilgan formada hisob-kitobini qiladi (5-ilova) shuningdek, hisob-faktura yozadi va Iste'molchiga beradi.

Iste'molchi mazkur hisob fakturasini unga xizmat ko'rsatuvchi bank orqali hisob raqamidan Issiqlik ta'minoti korxonasiga hisobot oyi uchun to'lovlarni amalga oshiradi.

3.11. Iste'molchi tomonidan hisobga olish pribori ko'rsatkichida xatolik aniqlangan taqdirda, Iste'molchi Issiqlik ta'minoti korxonasiga 7 kunlik muddatda (yozma, elektron) xabarnoma yuborishi lozim.

Hisobga olish priborini tekshirish haqida xabarnoma yuborilishi Iste'molchini iste'mol qilingan issiqlik energiyasi uchun belgilangan muddatda to'lovlarni amalga oshirishdan ozod qilmaydi.

3.12. Yetkazib bergan issiqlik energiyasi uchun Iste'molchi Issiqlik ta'minoti korxonasiga 1Gkal uchun 660 000 so'm+79 200 so'm(+QQS 12%) jami: **739 200** tarifi bo'yicha to'laydi.

To'liq yetkazib berilmagan issiqlik energiyasining miqdori hisobga olish pribori ko'rsatkichi bo'yicha aniqlanadi. Cheklash vaqti Issiqlik ta'minoti korxonasi dispetcherlik xizmatining operativ kitobidagi yozuvlar bo'yicha aniqlanadi hamda ikki tomonlama dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Issiqlik ta'minoti korxonasining aybi bilan iste'molchining texnologik ehtiyojlariga issiqlik energiyasi to'liq yetkazib berilmaganligi, hisobga olish priborlari bo'yicha, issiqlik energiyasi to'liq yetkazib berilmagan sutkadan oldingi 3 sutkadagi issiqlik energiyasining o'rtacha sutkalik iste'moli bilan issiqlik energiyasi to'liq yetkazib berilmagan sutkada amaldagi iste'mol o'rtasidagi ayirma sifatida aniqlanadi.

3.13. Hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarining noto'g'riligi yoki issiqlik energiyasi darfini hisoblashda xatolarga yo'l qo'yilganligi tasdiqlangan taqdirda Issiqlik ta'minoti korxonasi oxirgi hisob-kitob davridagi issiqlik energiyasi sarfini tegishli ravishda, Iste'molchining vakillari bilan birgalikda dalolatnoma tuzib, qayta hisob-kitob qiladi.

Yo'l qo'yilgan xatolar bo'yicha bajarilgan qayta hisoblash oxirgi hisobot davrida iste'mol qilingan issiqlik energiyasi uchun navbatdagi to'lov hujjatini rasmiylashtirayotganda hisobga olinadi.

3.14. 40°C-45°C haroratli issiqlik energiyasi iste'molchiga issiqlik suv ko'rinishida yetkazib berilganda hisob-kitob issiq suv tarifi bo'yicha 50 foizli chegirma bilan amalga oshiriladi.

Suv olish nuqtasida harorat 40° C dan past bo'lgan issiq suv berilishining har bir soati uchun hisob-kitob davri davomida jami iste'mol qilingan suv uchun to'lov ichimlik suv ta'minoti xizmatlari uchun iste'molchilarning tegishli guruhlari uchun tariff bo'yicha amalga oshiriladi.

3.15. Issiqlik energiyasi ta'minoti xizmatlariga tariflar o'zgarganda, sanadan qat'iy nazar, issiqlik ta'minoti shartnomasi kuchida qoladi va Iste'molchi foydalanilgan issiqlik ta'minoti xizmatlariga ular joriy etilgan kundan boshlab yangi tariflar bo'yicha haq to'lashga majbur. Yetkazib beruvchi tarif o'zgarishidan o'n besh kun oldin ommaviy axborot vositalarida tegishli xabarni e'lon qilish yo'li bilan tariflar o'zgarishi to'g'risida Iste'molchilarni xabardor qilishi shart.

Iste'molchi tomonidan issiqlik ta'minoti xizmatlariga avans to'langanda yetkazib beruvchi isitish va issiq suv ta'minotiga to'lov paytida amalda bo'lgan tariflar bo'yicha to'lov hisoblanadi (avans to'lovlar muddatiga, biroq o'n ikki oydan ortiqqa emas).

3.16. Issiqlik ta'minoti korxonasi aybi bilan paydo bo'lgan yo'qotishlar uchun Iste'molchi haq to'lamaydi.

IV. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Iste'molchi huquqlari:

a) ushbu shartnomaga asosan Issiqlik ta'minoti korxonasidan issiqlik energiyasini uzluksiz yetkazib berishni talab qilish;

b) issiqlik energiyasi yetkazib berish rejimini nazorat qilish, issiqlik energiyasi parametrlarining shartnomaviy qiymatlardan chetga chiqishiga yo'l qo'ymaslik:

issiqlik suv yetkazib berish bo'yicha:

issiqlik beruvchi quvurda suv harorati bo'yicha $-(\pm) 3$ foizdan ortiq;

issiqlik beruvchi quvurda suvning bosimi bo'yicha $-(\pm) 5$ foizdan ortiq;

orqaga qaytadigan quvurda suvning bosimi bo'yicha $-(\pm) 20$ kPa dan ortiq chetga chiqishga yo'l qo'ymaslik. bunda parametrlar o'rtasida sutkalik miqdor sifatida olinadi;

v) qoidalarga binoan o'z issiqlik tarmog'iga subiste'molchilarni ulash;

g) issiqlik energiyasining shartnomaviy parametrlari issiqlik ta'minoti korxonasining aybi bilan pasayganda, bu haqda issiqlik ta'minoti korxonasida oldindan xabar bergan holda, issiqlik energiyasi iste'molini to'xtatish. ushbu holda issiqlik ta'minoti korxonasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iste'molchi oldida javob beradi.

4.2. Iste'molchining majburiyatlari:

a) "Tabiatning muhofaza qilish to'g'risida", "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, "Issiqlikdan foydalanuvchi qurilmalar va issiqlik tarmoqlarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari"ga, "Issiqlikdan foydalanuvchi qurilmalar va issiqlik tarmoqlarini texnik ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalari"ga, shuningdek "Issiqlik energiyasidan foydalanish qoidalari"ga rioya qilish kerak;

b) foydalanilgan issiqlik energiyasi uchun shartnomada ko'rsatilgan muddatda to'lovni amalga oshirish;

v) Issiqlik ta'minoti korxonasi bilan kelishmasdan issiqlik energiyasi bir soatlik yuklamalarining shartnomaviy miqdorini oshirmaslik hamda issiqlik energiyasidan foydalanish bo'yicha tuzilgan shartnomaga muvofiq issiqlik iste'moli rejimiga rioya qilish va tarmoq suvining olinishi miqdorini oshirmaslik;

g) issiqlik iste'moli rejimiga nisbatan issiqlik ta'minoti korxonasining tezkor ko'rsatmalarini bajarish;

d) tarmoq suvini shartnomada belgilangan miqdorda, sifatda va tegishli haroratda qaytarish;

e) issiqlikdan foydalanish qurilmalari va issiqlik tarmog'ini issiqlikni hisobga olish priborlarini, quvurlar izolyatsiyasi va issiqlikdan oydanuvchi uskunalarni texnik jihatdan soz holatda saqlash;

j) issiqlik energiyasi iste'molini vaqtinchalik to'xtatish bilan bog'liq bo'lgan ta'mirlash ishlarini bajarish muddatlarini Issiqlik ta'minoti korxonasi bilan kelishish;

z) hisobga olish priborlari, issiq suvni to'kish uchun jo'mraklar, toraytiruvchi qurilmalar va armaturani Issiqlik ta'minoti korxonasining vakili bilan birgalikda plombalash, o'rnatilgan plombalarning saqlanishini ta'minlash.

Plombalarni olish Issiqlik ta'minoti korxonasining ruxsati bilan amalga oshirilishi lozim;

i) Issiqlik ta'minoti korxonasi vakiliga sutkaning har qanday vaqtida to'siqsiz hisoblash priborlarini tekshirish imkonini berish;

k) issiqlik energiyasidan nooqilona va isrofgarchilik bilan foydalanishga yo'l qo'ymaslik;

l) issiqlik tarmoqlari ustidan imoratlar qurilishiga, materiallar taxlanishiga, daraxtlar o'tkazilishiga yo'l qo'ymaslik ;

m) Issiqlik ta'minoti korxonasi bilan kelishmasdan issiqlik tarmoqlarini, muxandislik uskunalari va qurilmalarni qayta jihozlashga yo'l qo'ymaslik;

n) isitish priborlarining qo'shimcha seksiyalari, berkitish va boshqarish armaturalari o'rnatilishiga va chiqarib olinishiga yo'l qo'ymaslik;

o) istish tizimi issiqlik tarmog'idan boshqa maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'ymaslik (isitish tizmi va priborlaridan suvni to'kish);

p) Istemolchi issiqlik ta'minoti korxonasining balansida turgan issiqlik tarmoqlarida, oldindan kelishilgan holda amalga oshiriladigan ta'mirlash va qurilish ishlarini bajarish uchun Issiqlik ta'minoti korxonasining vakillarini o'z hududiga kiritish;

s) issiqlikdan foydalanuvchi qurilmalar va issiqlik tarmoqlariga tayyorlangan xodimlar tomonidan xizmat ko'rsatilishini ta'minlash

t) Issiqlik ta'minoti korxonasi tomonidan berilgan texnik shartlarni bajarish.

4.3. Iste'molchi ushbu shartnomani o'z ixtiyori bilan imzolaydi.

4.4. issiqlik ta'minoti korxonasi quyidagi huquqlarga ega:

4.4.1. Issiqlik ta'minoti korxonasi quyidagi holatlarda issiqlik energiyasini Iste'molchiga uzatishni, unga sabablarni ma'lum qilgan holda, to'liq yoki qisman to'xtatish huquqiga ega:

a) issiqlik energiyasi uchun to'lov hujjatlarida o'rnatilgan muddatlarda to'lovni amalga oshirilmaganligini yoki issiqlik energiyasidan foydalanish shartnomasida o'rnatilgan muddatlarda oldindan to'lovni amalga oshirilmaganligi uchun;

b) subiste'molchilar, yangi issiqlikdan foydalanuvchi qurilmalar va issiqlik tarmoqlari o'zboshimchalik bilan ulanganda;

v) issiqlik qurilmalari va issiqlik tarmoqlarini O'zbekiston respublikasi Energetika vazirligi qoshidagi Elektr energetikada nazorat bo'yicha inspeksiyaning (O'zenergoinspeksiya) ruxsatisiz ishga tushirilishida;

g) issiqlikdan foydalanuvchi qurilmalar va issiqlik tarmoqlari hisobga olish priborlaridan oldin ulanganda;

d) issiqlik yuklamalari o'rnatilgan shartnomaviy miqdoridan yoki tarmoqdagi suv sarfining miqdordan oshirilganda;

j) tarmoqdagi suv ifloslanganda;

z) Issiqlik ta'minoti korxonasining vakillari issiqlik energiyasini hisobga olish priborlarini ko'rikdan o'tkazishga qo'yilmaganda.

4.4.2. Ishonchlilil talablarini hisobga olgan holda Iste'molchilar zaxira issiqlik ta'minoti manbalarini texnik shartlar asosida amalga oshiradi.

Issiqlik ta'minoti korxonasi istish davri tugashidan 10 kun keyin va istish davri boshlanishidan 10 kun oldin issiq suv uzatilishini to'liq o'chirgan holda rejaviy profilaktika ishlarini o'tkazish huquqiga ega.

Issiqlik energiyasini uzatishda tanaffusning aniq sanasini (kuni va soatlarini) kelishish uchun Iste'molchiga issiqlik energiyasi uzatilishini to'xtatilishi haqida 10 kun oldin xabar beriladi. Agar Iste'molchi tomonidan 5 kun davomida issiqlik energiyasi uzatilishining to'xtatilishida tanaffus vaqti kelishilmasa, Issiqlik ta'minoti korxonasi ushbu vaqtni mustaqil belgilash huquqiga ega bo'ladi.

issiqlik energiyasini uzatishdagi tanffus ish vaqtidan tashqari vaqtda, Iste'molchiga kamida 24 soat oldin xabar bergan holda, amalga oshirilishi lozim.

4.4.3 Avariylarning oldini olish va bartaraf qilish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan choralarni ko'rish uchun Issiqlik ta'minoti korxonasi, issiqlik energiyasi uzatilishini to'xtatish sabablari haqida Iste'molchiga darxol ma'lum qilgan holda, issiqlik energiyasi uzatilishini to'xtatish huquqiga ega.

4.5. issiqlik ta'minoti korxonasining majburiyatlari:

a) issiqlik energiyasini Iste'molchiga ushbu shartnomaga muvofik uzluksiz uzatilishini ta'minlash;

b) Issiqlik ta'minoti korxonasi ob'yektida o'rnatilgai issiqlik energiyasini hisobga olish priborlarining kursatmalari to'g'riligi yuzasidan Iste'molchida shubha paydo bo'lganda, Issiqlik ta'minoti korxonasi sutkaning istalgan vaqtida Iste'molchi vakillari tomonidan o'rnatilgai tartibda issiqlik energiyasini hisobga olish priborlarining ko'rikdan o'tkazilishini ta'minlashi lozim;

v) issiqlik tarmoqlarining mansublik chegarasida issiq suv parametrlarini shartnomaga muvofiqligini ta'minlash, ya'ni ularni quyidagilardan ko'proq oqishiga yo'l qo'ymasligi lozim:

issiqlik uzatish quvuridagi suvning harorati bo'yicha $-(\pm) 3$ foizdan ko'proq;

suvning bosimi bo'yicha:

issiqlik suvni uzatish quvurida $-(\pm) 20$ KPa dan ortiq chetga chiqishiga yo'l qo'ymaslik. Bunda parametrlar o'rtacha sutkalik qiymatlar sifatida hisobga olinadi;

g) Issiqlik ta'minoti korxonasining aybi bilan Iste'molchiga to'liq yetkazib berilmagan issiqlik energiyasi qiymatini qoplash. To'liq yetkazib berilmagan issiqlik energiyasining hajmi Iste'molchining vakili ishtirokida Issiqlik ta'minoti korxonasi tomonidan aniqlanadi va dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi;

d) Iste'molchining issiqlik energiyasini to'liq yetkazib berilmaganligi, issiqlik eltuvchi parametrlarining shartnomaviy miqdorga nisbatan kamaytirilganligi haqidagi yozma arizalarni 10 kunlik muddatda ko'rib chiqish;

e) "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida", "Atmosfera havosini muxofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, "Issiqlikdan foydalanuvchi qurilmalar va issiqlik tarmoqlarini texik ekspluatatsiya qilish qoidalari"ga, "Issiqlikdan foydalanuvchi qurilmalar va issiqlik tarmoqlarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalari"ga, shuningdek, "Issiqlik energiyasidan foydalanish qoidalari"ga rioya qilish.

V.SHARTNOMA BAJARILMAGANDA YOKI LOZIM DARAJADA BAJARILMAGANDA TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Issiqlik ta'minotida Issiqlik ta'minoti korxonasing aybi bilan uzilishlar paydo bo'lganda Issiqlik ta'minoti korxonasi Iste'molchiga issiqlik ta'minotidagi tanaffuslar oqibatida yetkazilgan moddiy zararni qoplab beradi.

5.2. Issiqlik energiyasini yetkazib berish muddatlari kechiktirilganda, issiqlik energiyasi issiq suv ko'rinishida to'la hajmda yetkazib berilmaganda, Issiqlik ta'minoti korxonasi Iste'molchiga har bir kechiktirilmagan kun uchun bajarilmaan majburiyatlar qismidan 0,5 foiz miqdorida penya to'laydi, biroq penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan issiqlik energiyasi qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak.

Penyaning to'lanishi shartnomaviy majburiyatlarni buzgan tomonni, issiqlik energiyasini yetkazib berish muddatlarining kechiktirilishi yoki issiqlik energiyasini to'la hajmda yetkazib berilmasligi oqibatida yetkazilgan zararni qoplash majburiyatidan ozod qilmaydi.

5.3. Issiq suv ko'rinishida yetkazib berilgan issiqlik energiyasi qiymati uchun o'z vaqtida haq to'lanmaganda, Iste'molchi har bir kechiktirilgan kun uchun to'lov summasining 0,4 foiz miqdorida penya to'laydi, ammo uning miqdori muddati kechiktirilgan to'lovning 50 foiz dan oshmasligi kerak.

5.4. ushbu shartnomaning bekor qilinishi va uni amal qilish muddatining tugashi Issiqlik ta'minoti korxonasi va Iste'molchini yetkazilgan zararni qoplash va iste'mol qilingan issiqlik energiyasi uchun haq to'lash majburiyatidan ozod qilmaydi.

5.5. Issiqlik tarmoqlarining holati bo'yicha issiqlik iste'moli va ularga xizmat ko'rsatish obyektlarining javobgarlik chegarasi issiqlik tarmoqlarining balansga mansublik chegara va ularni ekspluatatsiya qilish bo'yicha javobgarlik chegarasi dalolatnomasi (1-ilova) bilan belgilanadi.

5.6. Issiqlik ta'minoti korxonasi istish tizmini yoqishda suvni sirkulyatsiya va issiq suv ta'minoti uchun bir quvurdan boshqa quvurga o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan tarmoq suvi sifatining (shaffofligi, rangi, va hidi) vaqtinchalik o'zgarishi uchun javobgarlik olib bormaydi.

5.7. Issiqlik energiyasi tarmoqlariga o'zboshimchalik bilan ulanish yoki ularni ekspluatatsiya qilish qoidalarining boshqa hil buzish holatlari, issiq suvni hisobga olish priborlarini qasddan buzish yoki bunday priborlarning ko'rsatmalarini o'zgartirish maqsadida ularga tashqaridan aralashish Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 101-moddasiga asosan ma'muriy javobgarlikka, O'zbekiston respublikasi Jinoiy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 185²-moddasiga asosan jinoiy javobgarlikka olib keladi.

VI.KORRUPSIYAGA QARSHI TALABLAR

6.1. Ushbu shartnomaning har bir taraflari bir-biriga nisbatan amaldagi korrupsiyaga qarshi kurash talablari, shu jumladan, bu bilan cheklanib qolmasdan, barcha amaldagi qonun va qoidalariga oid shartlarni va talablarni tadbiq etilishini ifodalaydi va kafolatlaydi.

6.2. Istemolchi Issiqlik ta'minoti korxonasiga mazkur shartnoma doirasida quyidagilarni kafolatlaydi va quyidagi majburiyatlarni ham o'z zimasiga oladi: Shartnomaning amal qilish muddati davomida u (shuningdek, uning xodimlari, direktorlari, agentlari va boshqa vakillari), iste'molchi manfaatlari uchun agent yoki vakil sifatida harakat qilib, Issiqlik ta'minoti korxonasining korrupsiyaga qarshi amaldahi talablariga va O'zbekiston Respublikasining barcha qonun va qoidalariga qat'iy rioya qiladi.

VII.FORS-MAJOR

7.1. Issiqlik ta'minoti korxonasi quyidagi hollarda tomonlar issiq suv ko'rinishidagi issiqlik energiyasini yetkazib berish va iste'mol qilishni to'xtatish yoki kamaytirishga haqlidirlar va buning uchun javobgarlikka tortilmaydilar:

a) Issiqlik ta'minoti korxonasi uskunalarining ishdan chiqishiga sabab bo'lgan tabiiy hodisalar: momaqaldiroq, bo'ron, suv toshqini, zilzila, yong'in, 48 soatdan ortiq vaqt mobaynida ushbu hududda isitishni loyixalashtirish uchun hisoblab chiqilgan haroratda 3°C ga va undan ortiq past bo'lgan haroratda havoning uzoq vaqt sovib ketishi, boshlang'ichsuv sigatining yomonlashishi holatlarida;

b) yengib bo'lmaydigankuchlar (fors-major) holatlari – bu tomonlarning irodasi va faoliyatlariga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda tomonlarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlarda.

7.2. Issiqlik ta'minoti korxonasi tizimidagi avariylarning oldini olish va ularni bartaraf etish yoki odamlarning xavfsizligini ta'minlash ishlarini o'tkazish bilan bog'liq kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni ko'rish zarur bo'lganda Iste'molchi bilan kelishmasdan va uni ogohlantirmasdan, biroq uni darhol xabardor qilgan holda issiqlik bilan ta'minlashda tanaffusga (uzib qo'yishga) yoki cheklashga yo'l qo'yiladi.

7.3. agar mazkur shartnomaning 7.1-bandida ko'rsatilgan holatlar tomonlar o'z majburiyatlarini bajarish muddatlariga bevosita ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, ushbu muddatlar fors-major holatlarining amal qilish vaqtiga suriladi.

VIII.SHARTNOMANING AMAL QILISHI, MUDDATINI UZAYTIRILISHI VA UNI BEKOR QILISH TARTIBI

8.1. Mazkur shartnoma tomonlar imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va **“01-yanvar 2025-yil”**dan, **“31-dekabr 2025-yil”**gacha amal qiladi.

8.2. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan va tomonlarning har birida saqlanayotgan ikki (Byudjet tashkilotlari uchun uch) nusxada tuzilgan. Ushbu shartnoma va uning ilovalari uning ajralmas qismi hisoblanadi.

8.3. Tomonlarning birini tashabbusi bilan shartnomani muddatidan oldin bekor qilish, ikkinchi tomoni bekor qilish muddatidan o'ttiz kun oldin xabardor qilgan holda va tomonlar o'zaro hisob-kitob qilishi sharti bilan bekor qilinishi mumkin. Bekor qilish to'g'risida xabarnoma yozma ravishda yuboriladi.

8.4. Barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular faqat yozma ravishda amalga oshirilib, tomonlarning vakolatli shaxslar tomonidan imzolangan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

IX. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

9.1. Tomonlar nizolarni iloji boricha o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qiladilar, Kelishuvga erishish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, nizoli masalalar amaldagi qonunchilik hujjatlari bilan belgilangan tartibda taalluqliligi bo'yicha Iqtisodiy sud tomonidan hal qilinadi.

9.2. Ushbu shartnoma talablarida nazarda tutilgan va tutilmagan holatlar bo'yicha nizolar kelib chiqqan taqdirda qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq tartibga solinadi.

X. SHARTNOMAGA ILOVALAR

10.1. Ushbu shartnomaga quyidagilar ilova qilinadi va ular shartnomaning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi:

a) Issiqlik ta'minoti korxonasi va Iste'molchi o'rtasida issiqlik tarmoqlarining balansga mansubligi bo'yicha bo'linish chegaralarini belgilash dalolatnomasi (1-ilova);

b) Iste'molchining vakolatlangan mas'ul shaxsini tayinlash to'g'risidagi ishonchnoma (2-ilova);

v) Iste'mol qilingan issiqlik energiyasi uchun qilinadigan hisob kitoblar hisob-faktura (3-ilova);

g) Issiqlik energiyasining hisobga olish ko'rsatkichlari bo'yicha hisoboti (4-ilova);

d) Isitish uchun uzatiladigan issiqlik energiyasining harorat jadvali (5-ilova).

XI. Taraflarning yuridik manzili va bank rekvizitlari:

"Yetkazib beruvchi"

"ISSIQLIK MANBAI" DUK Zarafshon filiali

Manzil: 210300 Navoiy viloyati Zarafshon sh.

Tel/faks. (79) 572-58-08

sh/h/r 470010860124017044302130003

STIR 307122468, IFTUT 36000

Manzil: Zarafshon shahar

G'az/h-r 23402000300100001010

Bank nomi: Markaziy bank

Bank kodi 00014, STIR 201122919

"ISSIQLIK MANBAI" DUK

Zarafshon filiali Filial boshlig'i

O.N. Elmatov



KELISHILDI:

Filial bosh muhandisi

MIvaIM bo'yicha filial boshlig'i o'rinbosari

IchTB rahbari

Yuriskonsult

Ijrochi: Ergashev Sh.J.

☎ (97) 559-17-96

"Iste'molchi"

Зарафшон шаҳар ҳоҷимлиги

(byudjet mablag'lari oluvchining nomi)

Manzil: Марварид кўчаси 1-йў

Tel/faks. 79-573-14-15

G'az/h-r 23402000300100001010

Bank nomi: Марказий банк

Bank kodi 00014 STIR 201122919

XHTUT

Shaxsiy raqam 100022860124087011204018001

Shaxsiy h-r

Bank Марказий банк

Bank kodi 00014 STIR 200010211

(G'aznachilik bo'lini nomi)

Rahbari:



F.H. Shukurov

G.Sh. Tuxtamurodov

R.Y. Tuxtayeva

M.I. Umirova